



O'ZBEK VA RUS TILLARIDA BALANDLIK KONSEPTINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Beginmov Odil To'xtamishovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, O'zbek tili va adabiyoti
kafedrasini mudiri, filologiya fanlari doktori
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8434035>

ARTICLE INFO

Received: 03rd Oktober 2023

Accepted: 11th Oktober 2023

Online: 12th Oktober 2023

KEY WORDS

Turkumlashtirish, semantik
tuzilma, tabiiy voqelik,
balandlik, lingvomadaniy.

ABSTRACT

O'zbek va rus tillarida balandlikning har xil turlarini ataydigan so'zlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, turli til madaniyatlarida bir xil tabiiy voqeliklarni turkumlash universal va individual xususiyatlarning uyg'unlashuvidir. Maqolada tabiiy voqelik belgilarining semantik xususiyatlarini tahlil qilish asosida ularning mazmuni, kognitiv tuzilmalari ochib berilgan.

KIRISH

Ilmiy lingvistik bilimlarning izchil rivojlanishi tilning shakllanishi va faoliyatining turli tomonlarini tushunish uchun yangi imkoniyatlarni namoyish etadi. Xususan, so'zning semantik tuzilishini tahlil qilish nafaqat ma'no tarkibiy qismlarini, balki "belgining bag'rida mujassamlashgan" kognitiv tuzilmalarni ham aniqlash imkonini beradi [12; 5].

Biz bu maqolada boshqa-boshqa tillar tizimiga tegishli bo'lgan rus va o'zbek tillarida turli xil balandliklarni ataydigan lug'aviy birliklarning qanday lingvomadaniy xususiyatlarni namoyon qilishini tahlil etishni maqsad qildik. Tadqiqot ishi uchun o'zbek va rus tillari izohli lug'atlarida keltirilgan ma'lumotlar material sifatida foydalanildi. Balandlik tushunchasini ifodalaydigan leksik-semantik guruh (keyingi o'rinlarda - LSG) lug'aviy birliklarini tahlil qilishda quyidagi asosiy qoidalardan kelib chiqildi:

1. Inson tafakkurining turkumlashtirish faoliyati natijasi turli geografik obyektlarning ma'lum bir tabiiy turlarga (masalan, tog', tosh va boshqalar) birlashishi hisoblanadi. Tabiiy turlar, o'z navbatida, "obyekt / obyektlik" toifasiga kiradi, ular "shakl", "o'lcham", "rang", "material" va boshqalar toifalari bilan bir qatorda, o'z davrida Aristotel tomonidan aniqlangan asosiy kategoriyalarga tegishli bo'ladi [2].
2. Lug'aviy definisiya obyektning birlamchi toifalanishiga asos bo'lgan so'zda mustahkamlangan semantik-kognitiv xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi [8; 9].
3. Har xil turdagi balandliklar nomlaridagi semantik-kognitiv xususiyatlarni qiyosiy tahlil qilish tabiiy-geografik obyektlarning o'zini farqlash mezonlarini ajratib ko'rsatish va turli til madaniyatlarida balandliklarni turkumlashning universal va etno-spesifik jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

O'zbek tilida balandlik LSG tog', tog' tizmasi, tog' tizimi kabi tushunchalarni ifodalovchi lug'aviv birliklar bilan bir qatorda cho'qqi, qir, qoya, tosh, qiya, tepa, dovon, bel, sirt, adir, ko'tal, ort, do'ng, ko'h, sang, mo'la, nura, aydar, mas//mos, taxta, alang, qo'l, shoti, ayri, suyri,



aqba//ag'ba, tubak, qaloq, bo'ktar, shox, qashqa, qat, qatov, qoboq, singir, chag'il//chag'al, chag'at, shiram, g'urum, qaqir, bayir, tumshuq, qiz//quz, ti//tig'//teg', baroz//barzu, shirdon, pushta, orqa, orqavul, burun, oshuv, qayqi, toqcha, sangir, mag'ora, dapsan, qo'rg'ontepa. kabi leksemalarni ham o'z ichiga oladi [3,67].

Rus tilidagi shu turdagi LSG tarkibi yanada reprezentativlik xususiyatiga ega bo'lib, *возвышенность, высота, бархан, бугор, взгорок, взгорье, взлобок, вулкан, гора, горка, дюна, крутогор, круча, курган, пригорок, скала, сопка, увал, угор, утес, холм* kabi leksemalarini o'z ichiga oladi [1; 5].

Bu LSGda relefning alohida turi sifatida balandliklarni tabaqalanmagan holda belgilaydigan so'zlar va obyektning ma'lum xususiyatlariga qarab balandlikning har xil turlarini nomlaydigan lug'aviy birliklar ajratiladi. Ushbu tabiiy voqelik nominatsiyasining shaffof ichki shakli (*возвышенность* / balandlik), shuningdek, uni *высота* / *tepalik* belgisidan biri relefning boshqa elementlaridan farqli o'laroq, ikkala turdagi balandlikni tanlash uchun asos bo'lgan mezonlarni aniq ko'rsatadi.

Biz bir xil tabiiy voqelik haqida gapirayotganimiz sababli, uni talqin qilishda farqlar bo'lmasligi kerak, deb o'ylashimiz, ammo bunday farq mavjud. O'zbek tilida balandlik leksemasi birinchi ma'nosiga ko'ra, yer sathidan yuqorigacha bo'lgan oraliq masofa; yuksak joylashgan fazo yuzasidagi baland joy, ikkinchi ma'nosiga ko'ra, tekis yer yoki pastlikdan yuqori turadigan joy; makon; tepalik tushunchalarini ifodalaydi [19,147]. Rus tilida *возвышенность* «*высокая гористая или холмистая местность*» (baland tog'li yoki tepalikli hudud), ya'ni tog'lar va/yoki tepaliklarni o'z ichiga olgan keng hudud sifatida talqin qilinadi[16].

Balandlik darajasi eng yuqori bo'lgan geografik obyekt turi tog'dir. Tog' - yer yuzasining tevarak-atrofdagi tekislik, tepalik yoki boshqa balandlikka nisbatan yakka yoki qator holda baland ko'tarilgan, odatda, turli tosh, qattiq jismlardan iborat qismi [20, 163].

Tog'ning maxsus relyef elementi sifatidagi kategorik belgisi uning hajmidir (tog' - bu atrofdagi hududdan sezilarli darajada ko'tarilgan balandlik [16; 18]. Ushbu termin diyarli barcha turkiy tillar oronimik tizimida turli fonetik variantlarda uchraydi: Xorazmda – tav: Qaratav, Qubatav; oltoycha – tuu: Aktuu “oq tog’”, Too tuu “tuya tog’; qirg'izcha – too: Alatoo; qozoqcha – tau: Qaratau; turkmancha – dag': Kapetdag'; turkcha – dag: Ayydag “ayiq tog’”; boshqirdcha – tau: Taulym, Tauzar «tog'lar». Maxmud Koshg'ariy lug'atida ham bu so'z “tag” shaklida keltirilgan [13,167].

Shu bilan birga, etnik guruhning lingvistik ongi, ushbu tabiiy-geografik obyektning keyingi bo'linishi va ularni qiyosiy jihatdan til madaniyatlaridagi farqlash mezonlari har doim ham bir-biriga to'g'ri kelavermaydi. Shunday qilib, o'zbek tilida tog' so'zi balandligi jihatidan boshqa balandliklardan farq qiluvchi obyektlarga ishora qiladi, rus tilida esa bu tabiiy obyekt "shakl" asosida farqlanadi (taqoslang: *гора и кряж* - tog' va tik tog). Baland va katta hajmli (yuksak) balandliklar orasida *cho'qqi, qoya* - toshli tepaliklar mavjud. O'zbek tilida ular quyidagi leksema bilan belgilanadi: Cho'qqi – tog', tepa, qirlarning baland, nayzasimon o'tkir, ko'pincha kristalli, qattiq toshlardan iborat qismi. Tog'larning ba'zi eng baland qismi uchli bo'lmasa ham «cho'qqi» deyiladi [6,139]. Bu so'z kelib chiqishiga ko'ra, eski o'zbek tilida «bosh kiyimi ustidagi do'mboq» ma'nosini anglatgan choq otidan kuchaytirish ma'nosini



ifodalovchi -ы qo'shimchasi bilan hosil qilingan; keyinchalik ы unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: *choq+ы>choqqy>choqqi* [17,446].

Qoya. O'zbek tilida qoya indikator polisemantik xarakterga ega bo'lib, quyidagi ma'nolarda qo'llanadi:

– qattiq, tub jinslardan iborat tik ko'tarilgan cho'qqi, jarlik, tepa (asosan, nurash natijasida qattiq tog' jinslarining ochilib, yer yuziga chiqib qolishidan hosil bo'ladi);

– baland tik tosh, qoyatosh. Shuningdek, qoya va qoyatosh so'zlari o'zaro ma'nodosh. Maxmud Koshg'ariy lug'atida qaya – tog'lardagi katta qattiq tosh, qoya ma'nosida izohlangan. Lug'atda bu so'zni yalim qaya – “pishiq, qattiq tog', tepa” ma'nosidagi birikma tarkibida ham ko'rish mumkin. Maxmud Koshg'ariy bu birikmani ma'nosini asoslash uchun quyidagi maqolni keltiradi: “Talim so'zug uqsa bo'lmas, yalim qaya yiqsa bo'lmas. – Ko'p so'zni tushunib bo'lmaydi, qattiq toshni yiqitib bo'lmaydi [20, 353]. Shuningdek, *qoya* va *qoyatosh* so'zlari o'zaro ma'nodosh. Maxmud Koshg'ariy lug'atida qaya – tog'lardagi katta qattiq tosh, qoya ma'nosida izohlangan [13,186]. Lug'atda bu so'zni yalim qaya – “pishiq, qattiq tog', tepa” ma'nosidagi birikma tarkibida ham ko'rish mumkin. Maxmud Koshg'ariy bu birikmani ma'nosini asoslash uchun quyidagi maqolni keltiradi: “Talim so'zug uqsa bo'lmas, yalim qaya yiqsa bo'lmas. – Ko'p so'zni tushunib bo'lmaydi, qattiq toshni yiqitib bo'lmaydi [13, 27].

Lug'atlarda qayd etilgan ma'lumotlariga ko'ra, o'zbek til madaniyatida toshning kategorik belgilari nafaqat material (tosh), balki balandligi, shuningdek, hajmi va joylashuvi (yer yuzasida qoya, toshqoya; suv ostida suvqoya bo'lishi mumkin).

Rus tili lug'atlarida toshli tepaliklar *скала, утес* so'zlari bilan belgilanadi. Rus tilida: “Скала определяется как «каменная глыба, утес с крутыми склонами и острыми выступами». Разновидностью скалы является утес – отвесная скала” (Qoya " tosh, tik yonbag'irlari va o'tkir qirrali qoya" deb ta'riflanadi. Qoyaning bir turi jar – tik qoya [16]. Binobarin, rus tilida qoyalar material (tosh), katta hajm (blok), qiyalik shakli (tik, qirrali) kabi belgilariga ko'ra tasniflanadi.

Qoya deb ataluvchi balandliklarni ajratib turadigan umumiy farqlovchi belgi, albatta, material (tosh)dir. Biroq, taqqoslangan til madaniyatlarida ularning keyingi farqlanishi turli asoslarda amalga oshishi mumkin. O'zbek tilida bu tabiiy-geografik obyektning balandligi va o'lchami (kattaroq yoki kichikroq), shuningdek uning joylashuvida o'z ifodasini topsa, rus tilida bu shakl va katta hajmd hisoblanadi.

Balandligi (yoki hajmi) kichikroq bo'lgan balandliklarni ataydigan so'zlarning korpusi ayniqsa xilma-xildir. Oz'bek tilida bularga tepa, adir, lalmi, qir, shiram kabi leksemalar kiradi. Lug'atlarda ularning ma'nosi quyidagicha izohlanadi: tekislikdagi past tog'; tog'dan ham pastroqda joylashgan alohida tepalik; yerning tepalikdek balandroq, tog'dan pastroq yuzasi; tekislik ustida ko'tarilgan alohida (alohida turgan) tepalik; tabiiy tepalik, tog'dan kichikroq, kichik va cho'zinchoq tepalik; kichik tog', alohida, tabiiy yoki sun'iy; cho'llarda shamol ta'sirida ko'chib yuradigan qum tepaligi [O'TIL].

Bel. Izohli lug'atda geografiyaga oid so'z ekanligi va terminlik ma'nosi qayd etilgan: «Bel geogr. Tog' va tepaliklarning egarsimon eng baland joyi» [19,219].

Geografiyaga oid terminologik lug'atda mazkur birlikka: «Bel – tog'lardagi uncha baland bo'lmagan keng dovon; uzun cho'zilgan qirralari sezilmaydigan do'nglik» degan izoh berilgan



[24,24]. Entsiklopedik lug'atdagi izohga ko'ra: «bel – tog'ning o'tish oson bo'lgan pastroq qismi» [22].

Lug'at ma'lumotlari tahliliga ko'ra, bu leksemalarning farqlanishi ular murojaat etayotgan predmetlarning fenomenologik xususiyatlariga asoslanadi. Ta'riflar obyekt (balandlik)ning balandlik o'lchovi, yolg'iz yoki guruh bo'lib joylashganligi, shakli, tabiiy yoki sun'iy kelib chiqishi kabi kategorik belgilarini aks ettiradi.

“Balandlik” belgisi asosida ancha yuqori balandlik turlarini bildiruvchi *tog'*, *baland tog'*, *dovon*, *cho'qqi* leksemalari, denotati kichik balandliklar bo'lgan *adir*, *qir*, *lalmi*, *tepa*, *bo'ktar*, *qavoq*, *shiram* leksemalari ajratiladi. “Yagona yoki guruh bo'lib joylashuvi” asosida *tepa*, *tog'*, *adir*, *cho'qqi*, *tog' tizimi*, *tog' tizmasi* leksemalari ajratiladi. “Joylashuv” asosida *tepa*, *yetimtog'*, va *beltog'* (qator qum barxanlari) leksemalari farqlanadi. “Shakl” belgisi cho'ziq balandlikni bildiruvchi tumshuq leksema tarkibidagina qayd etilgan. “Kelib chiqish” belgisi (tabiiy yoki sun'iy ravishda kelib chiqqan) va *beltog'* (sahrolarda shamol tomonidan yaratilgan) leksemalarida qayd etilgan. «Material» belgisi, «harakat» belgisi kabi faqat *beltog'* leksemasi uchun xarakterlidir.

Rus tilida past balandlik ko'p sonli leksemalar bilan ifodalanadi: *бархан*, *бугор*, *взгорок* (*разг.*), *взгорье*, *взлобок* (*прост.*), *горка*, *дюна*, *курган*, *пригорок*, *сопка*, *увал*, *угор* (*разг.*), *холм* [1;5]. Lug'atlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu leksemalarning ta'riflarida mayda tepaliklarning kognitiv tasniflagichi vazifasini bajaradigan *холм* и *горка* so'zlari ko'p qo'llaniladi. Ta'riflarga ko'ra *горка* – это «маленькая гора», а *холм* – «округлая возвышенность с пологими склонами» [16; 18].

“Горка” leksemasida balandlikning kichik o'lchami, “холм” leksemasida tepalik shakli va uning yonbag'irlari tushunchasi yetakchilik qilib turibdi. Bu semantik-kognitiv xususiyatlar boshqa xususiyatlar bilan birgalikda *бугор* (kichik tepalik, *tog'cha*), *пригорок*, shuningdek, so'zlashuv nutqida *пригорье*, *взгорье* и *взгорок* (*tepa*, *adir*, *tog'cha*), *угорье* va so'zlashuvda *угор* – (kichik balandlik, *tepa*) kabi turdagi balandliklarni ifodalaydi [18], *сопка* leksemalarida (*Zabaykaliya* va *Uzoq Sharq*dagi *usti dumaloq tog'*, balandliklarni ifodalaydi) [4], *курган* - *tepa*, xususan, qadimgi xalqlarda dafn qabrlari, *бархан* – *dasht* va cho'llardagi qumli tepalik, va *дюна* - qumli tepalik, shamol ko'chiradigan cho'kindilar [16].

Rus tilida dumaloqdan farqli shaklga ega bo'lgan kichik balandliklar kamroq ifodalanadi. Ulardan *круча* – *крутая возвышенность* (tik balandlik), *взлобок* (*прост.*) – *возвышенное место*, *крутой пригорок* (*baland joy*, tik tepalik) [18] va *увал* – *вытянутая в длину возвышенность с пологими склонами* (yassi yonbag'irli cho'zilgan tepalik) [4].

O'zbek tili mahalliy shevalarida ham balandliklarning turli belgilariga ko'ra farqlovchi termilar qo'llaniladi. Jumladan, bunday orografik xarakterdagi terminlardan biri *uva* bo'lib, quyi Qashqadaryo shevasida *uva* - “tekis joydagi, cho'ldagi kichik do'nglik, yassi balandlik” ma'nolarini beradi. *Uva ~ uba ~ o'ba* – kelib chiqishiga ko'ra turkiy tillarga xos so'z. Genezisi mo'g'ul va tungus-manjur tillaridagi *obo ~ ovo* (*tepa*, do'nglik, balandlik, yolg'iz tepalik; tosh uyumi, tosh to'da) so'zi bilan bog'liq. Bu termin ornimik indikator sifatida Uvaliq oronimida saqlangan. Shuningdek, bu indikatorni Uvada toponimida ham ko'rish mumkin [15,186].

Mahalliy xarakterdagi orografik terminlardan yana biri *shiram* hisoblanib, u “tog' bag'ridan quyi tomon davom etgan cho'ziq balandlik, uzun qir, tizma” tushunchalarini ifodalaydi. U asosan Janubiy O'zbekiston, Turkmaniston va Tojikiston qo'ng'irotlari nutqida



uchraydi. Dehqonobod tumanining tog'li hududlar aholisi nutqida "bir tomoni tik jarlik bo'lib, boshqa tomonlari yassiroq yoki qiyalik bo'lgan cho'ziq balandlik" tushunchasini ham ifodalaydi [15, 19].

Balandlikning o'ziga xos turini ifodalaydigan *bag'ir//bovir* termini "balandlik, ust qismi yassi bo'lgan balandlik" tushunchasini ifodalaydi. Qirg'iz tilida "tog' qiyaligi, tog' yonbag'ri" ma'nosiga ega. Maxmud Koshg'ariy lug'atida *bag'ir* – jigar ma'nosida izohlangan. Shuningdek, yoyning o'rta qismini ham yoy bag'ri deyilishi ko'rsatilgan [12,341].

O'zbek adabiy tilida insonning ko'zi bilan qoshi o'rtasidagi qismi tushunchasini ifodalaydigan *qovoq* so'zi geografik atama sifatida gidrografik ob'ektlar, ya'ni daryo va ko'llarning baland qirg'og'i; orografik ob'ektlar, ya'ni jarlik, daralarning cheti, tegrasi; ust qismi yassi tarzda bo'lib, ko'rinishi inson qovog'iga o'xshash shaklga ega bo'lgan qavariq joy, balandliklarni ifodalaydi. Demak, qavoq so'zi orografik termin sifatida balandlikning bir turini bildiradi. Janubiy O'zbekiston tog'li hudud aholisi nutqida bu termin usti yassi, old tomoni tik tushgan balandlik tushunchasini ifodalaydi [6,150]. Qavoq tushunchasini ifodalaydigan balandliklardan yaylov sifatida foydalaniladi. Shuning uchun bu so'z yaylov so'zi bilan ma'nodoshlik xususiyatini namoyon etadi.

Balandlikning bir turi sifatida bo'ktar so'zi ba'zi turkiy tillari, jumladan, qirg'iz tili, shuningdek, o'zbek tilining ba'zi bir qancha shevalari (masalan, Zomin, G'allaorol tumanlari)da "tog' etagi" tushunchasini ifodalaydi. Bu so'z Mahmud Koshg'ariyning «Devonul lug'atit turk» asarida ham qayd etilgan. Maxmud Koshg'ariy uni bo'ktir – "tog' oldi, tog'dagi tepalik joy" shaklida izohlagan [12, 424]. Qirg'iz tilida bekter, o'zbekchada bo'ktar – "tepalik" (asosan tog' oldi hududida). Demak, bu so'z o'z ma'no xususiyatiga ko'ra "adir" so'ziga mos keladi.

O'zbek tilining mahalliy shevalarida ko'tal termini qo'llanilib, u orografik atama sifatida "tog'dan oshib o'tgan yo'l, pastroq dovon" ma'nolarini ifodalaydi. Ko'tal so'zi tarxiiy yozma manbalarda, jumladan, «Zafarnoma», «Boburnoma» kabi asarlarda joy nomlari tarkibida uchraydi. Masalan, «Boburnoma»da tarkibida ko'tal termini qatnashgan turli hududlarga tegishli 30 ga yaqin joy nomlari keltirilgan. Mo'g'ul tili orografik (relyefning qabariq shakllari) terminologiyasini tadqiq etgan N.I.Danzanovanning keltirishicha, qadim.mo'g'. kütel, kötül "tog'dan o'tish joyi"; mo'g'. xetel "tepa, tog'cha"; pastqam tog'li oshib o'tish joyi; bur. xutel "pastqam tog'li oshib o'tish joyi; tepa, pastqam tog'; kalm. ketl, oyr. Sinsz. ketel « qo'rg'on, tepa; tog'dan oshib o'tiladigan joy [8, 20].

S.Qorayevning fikricha ham ko'tal so'zi mo'g'ulcha bo'lib, «dovon» ma'nosini ifodalaydi. Tadqiqotchi dovon termini ham mo'g'ulcha, lekin ular farq qilib, ko'tal pastroq dovon» ekanligini ta'kidlaydi [24,68]. Bu orografik termining areali ancha keng bo'lib, u O'rta Osiyo, Eron, Afg'oniston oronimiyasida uchraydi.

Rus tilida tog' tushunchasini ifodalashda bo'lgani kabi, hajm (холм, бугор, пригорок) bilan bir qatorda, bir xil obyektini nomlash uchun turli nomlar qo'llanilishi mumkin, bunda tepaliklar nomlarining farqlovchi belgisi sifatida ularning shakli ham ishtirok etadi. Bundan tashqari, ularning tarqalish arealiga qarab холм tipidagi balandliklar uchun maxsus atamalar mavjud (сопка — Zabaykaliya va Uzoq Sharqda; курган — dashtlarda, бархан — cho'l va dashtlarda, дюна — sahrolarda). Бархан и дюна leksemalarining semantik-kognitiv belgilariga material (qum), ko'chish va yuzaga kelish sababi (shamol) ham tegishlidir.



Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. O'zbek va rus tillari izohli lug'atlarida balandlikning har xil turlariga tegishli ma'lumotlarni tahlil qilish tegishli leksemalarning semantik-kognitiv belgilarini nomlangan obyektlar haqidagi bilimlarning ma'lum tuzilmalari sifatida aniqlash imkonini berdi.

2. Bu xususiyatlarni qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatdiki, turli lingvomadaniyatlarida tabiiy voqelikning ma'lum bir turini ta'riflashda ham universal, ham o'ziga xos etnik xususiyatlarning bo'lishi tabiiydir. Universal (yoki kategoriyal) belgilar u yoki bu geografik obyektni atrofdagi borliqdan farqlash va boshqa tabiiy voqeliklar orasidagi o'rnini aniqlash imkonini beradi.

3. Maxsus tabiiy-geografik obyek sifatida balandlikda bunday xususiyatlar nafaqat "o'lcham" va "material", balki "balandlik" tushunchalarini ham o'z ichiga oladi. Balandlikning individual turlarini aniqlash uchun ushbu xususiyatni yanada farqlash va "yuqori balandlik" va "kichik balandlik" parametrlarini kiritish muhim hisoblanadi.

4. O'zbek lingvomadaniyati uchun ustuvorlik uch atamali oppozitsiya sifatida namoyon bo'ladigan "balandlik" kategorik belgisidir: "yuksak balandlik", "o'rta balandlik" va "past / kichik balandlik". Rus til madaniyatida tabiiy-geografik obyektlarni tasniflashda "balandlik" belgisi ikki atamali oppozitsiyani hosil qiladi: "katta balandlik" va "past / kichik balandlik".

5. Rus lingvomadaniyatida bir tomondan *гора, крутогор, вулкан*, ikkinchi tomondan *горка, холм, пригорок, бузгор, бархан, дюна* kabi barcha balandlik turlari ajralib turadi. Til vositalarining bunday nomutanosibligi rus tili madaniyati uchun past balandliklarning alohida ahamiyatidan dalolat beradi, o'zbek tilida esa baland, o'rta-baland va past balandliklarni atash uchun turli xil miqdordagi leksemalar mavjud.

6. Rus til madaniyati uchun boshqa parametrik xususiyat - "hajm" belgisining ustunligi xarakterli hisoblanadi. "Katta o'lcham" belgisi asosida *ропа (tog')* va *кpyтopop (tik tog')* kabi tabiiy-geografik obyektlar, "o'rta o'lcham" belgisi asosida - *холм (tepa)*, "past / kichik o'lcham" belgisi asosida - *горка, пригорок, быроп* atamaları ajratiladi.

Yuqorida keltirilgan tahlillarning barchasi turli til madaniyatlarida bir xil tabiiy voqeliklarning turkumlanishi universal va individuallikning uyg'unlashuvi ekanligini ko'rsatadi.

References:

1. Aleksandrova Z. E. Slovar sinonimov russkogo yazyika : prakticheskiy spravochnik : ok. 11000 sinonim. ryadov. – Maskva: Rus. yaz.-Media, 2003. – 568 s.
2. Arutyunova N. D. Kategoriya//Lingvisticheskiy entsiklopedicheskiy slovar. – M. : Sov. entsiklopediya, 1990. – S. 215–216.
3. Begimov O.T. Janubiy O'zbekiston oronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi: Filol.fan. dokt.diss.avtoref. – Samarqand, 2021. – B. 67.
4. Bolshoy tolkovyiy slovar russkogo yazyika / pod red. S. A. Kuznetsova ; RAN, In-t lingv. issl. – SPb. : Norint, 1998. – 1536 s.
5. Bolshoy sinonimicheskiy slovar sovremennogo russkogo yazyika : rechevyie ekvivalentyi : prakt. spravochnik : v 2-h t. – SPb. : Neva, 2003. – T. 1. – 448 s.
6. Geografik terminlar va tushunchalar izohli lug'ati (tuzuvchilar: Qoraev S., G'ulomov P., Rahimbekov R.). T., 1979. –B. 139.



7. Grishaeva L. I. Nominativno-kommunikativnaya funktsiya predlozheniy s glagolami povedeniya / L. I. Gri-shaeva. – Voronej : VGU, 1998. – 272 s.
8. Danzanova N. I. Orograficheskaya terminologiya v mongolskih yazyikah (formyi vozvyishennogo relefa): Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk , - Ulan-Ude,2012. -S. 20
9. Korneva V. V. Semanticheskie dominantyi ispanskoy kartinyi mira v strukture mnogoznachnogo slova // Vestnik Voronej. gos. un-ta. Ser.: Lingvistika i mejkulturnaya kommunikatsiya. – 2011. – № 1. – S. 37–41.
10. Korneva V. V. Mnogoznachnost yazyikovyih edinits v kognitivnom aspekte : kol. monografiya / V. V. Korne-va ; otv. red. L. M. Kovaleva ; red. S. YU. Bogdanova, T. I. Semenova. – Irkutsk : IGLU, 2013. – S. 168–188.
11. Korneva V. V. Geograficheskaya leksika v yazyikovoy kartine mira // Aktualnyie problemyi sovremennogo yazyikoznaniya i lingvodidaktiki : sb. nauchnyih trudov pamyati N. M. Malkinoy. – Voronej : VGPU, 2013. – S. 95–102.
12. Koshg'ariy M. Devonu lug'atit turk . : O'zFA. Toshkent: Fan, T. I , 1960. –B. 341.
13. Koshg'ariy M. Devonu lug'atit turk . -Toshkent: Fan, T. III , 1963. –B.167.
14. Kubryakova E. S. YAzyik i znanie : na puti polucheniya znaniy o yazyike : CHasti rechi s kognitivnoy tochki zreniya. Rol yazyika v poznanii mira // Ros. akademiya nauk ; In-t yazyikoznaniya. – M. : YAzyiki slavyanskoy kulturyi, 2004. – 560 s.
15. Nafasov T. O'zbekiston toponimiyalarining izohli lug'ati . –Toshkent: O'qituvchi, 1988. – B.186.
16. Ojegov S. I. Tolkovyyiy slovar russkogo yazyika : 80 000 sl. i frazeol. vyirajeniy . Ros. akad. nauk. ; In-t rus. yazyika. – 4-e izd., dop. – Maskva: Azbukovnik, 2001. – 944 s.
17. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati (turkiy so'zlar) . –Toshkent: Universitet, 2000. – B.446.
18. Slovar russkogo yazyika : v 4-h t. / pod red. A. P. Evgenevoy. – Maskva: Rus. yaz., 1985.
19. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2008. – 1-j.
20. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2008. – 4-j. – B.163.
21. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2008. – 5-j. – B. 353.
22. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 1-jild. – B. 684-685.
23. Qorayev S. va b. Geografik terminlar va tushunchalar izohli lug'ati. –B. 24.
24. Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosini bilasizmi? - Toshkent: O'zbekiston, 1970. – B. 68.